



## BO'LAJAK HARBIY PEDAGOGLarda NUTQ TEXNIKASI VA NOTIQLIK MADANIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

**Rayimov To'lqinjon G'aybullayevich**

*O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi katta o'qituvchisi  
(2-bosqich magistranti)*

**Annotatsiya.** Nutq madaniyati pedagogda yuksak darajada bo'lishi kerak. Bunda ovoz ham yuqori ahamiyatga ega. Pedagogning nutqi jarangdor, aniq, turli shevaga xos so'zlardan holi bo'lishi komunikativ qobiliyati yuqori bo'lishi zarurdir. Bu dunyoda qaysi kasibni egallashidan qatiynazar nutq madaniyatini mukammal darajada egallab borishi zarur hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** pedagog, nutq madaniyati, pedagogik o'zaro ta'sir, komunikativ nutq.

**Аннотация.** Педагог должен обладать высоким уровнем культуры речи. В этом случае большое значение имеет и голос. Необходимо, чтобы речь педагога была звонкой, ясной, свободной от слов, характерных для разных диалектов, и обладала высокими коммуникативными способностями.

**Ключевые слова:** педагог, культура речи, педагогическое взаимодействие, коммуникативная речь.

**Abstract.** Speech culture should be at a high level in a pedagogue. In this case, the voice is also of great importance. It is necessary that the speech of the pedagogue should be resonant, clear, free of words characteristic of different dialects, and have high communicative ability.

**Key words:** pedagogue, speech culture, pedagogical interaction, communicative speech.

### KIRISH

Har qanday nutqiy ifoda bir vaqtning o'zida muloqot vositasi va shuningdek, ma'lum maqsadga, vazifaga erishish vositasi ekanligi bilan ham izohlanadi. Nutq jarayoni insonlar o'rtasidagi munosabatlarning barcha qatlamlarini qamrab oladi. Muloqot jarayonida suhbatdoshini o'ziga ishontira olish, yetkazayotgan ma'lumotga jalg qilishda nutq strategiyasini ishlab chiqish, muloqot imkoniyatini o'zida aks ettiradigan muloqot jarayonidagi taktikalarga ega bo'lish, qarshi tomon bilan bahs munozaralarga kirisha olish, bahslashish qobiliyati, shuningdek, tegishli til vositalarini qo'llash imkoniyatini o'z ichiga olgan nutq ta'siri usullaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. O'z navbatida, nutqiy faoliyat muloqot tarkibida faollashadi. Muloqot tarkibi ham boshqa funksional sistemalar singari o'z birliklariga ega. Ularning tahlili ma'lum faoliyat turlarining mazmuniy tarkibini tashkil qiladi. Nutqiy faoliyatning ta'sir o'tkazish bosqichi perlukutiv akt nomini olgan. Perlukutiv akt nutqiy jarayonning boshlang'ich bosqichi sanaladi. Nutqiy jarayonning keyingi kechimi muloqotdosh borasida, muloqot mavzusi, muloqot maqsadi borasidagi bilimlarga ega



bo'lish bilan bog'liq bo'ladi. Shuning uchun faqat mazkur bilimlarning o'zaro munosabatini hisobga olgandagina, biz nutqiy jarayonning mohiyatini anglashga yaqinlashgan bo'lamiz. Nutqiy muloqot jarayoni, insonning nutqiy faoliyatini uning rang-barang, chunonchi: ruhiy, ijtimoiy, ma'naviy, madaniy va hokazolar bilan bog'liq holda amalga oshiriladi. Nutqiy muloqot jarayoni ijtimoiy va tabiiy jarayon bo'lganligi sababli nutqiy muloqot jarayoni inson faoliyatining o'nlab qirralari bilan bog'liqlikda o'rjaniladi.

### ASOSIY QISM

Nutq madaniyati jamiyat madaniy – ma'rifiy taraqqiyotining millat ma'naviy kamolotining muhim belgisidir. Haqiqiy ma'nodagi madaniy nutq shaxs umummadaniy saviyasini favqulorra muhim unsurlaridan biridir. Bugungi kunda nutq madaniyati masalalari pedagogning nutqiy madaniyat mahorati farzandlarimizning madaniy nutq ko'nikmalari va malakalarini oshirish, ta'lim jarayoning barcha bosqichlarida madaniy nutq muammolarini yetarli darajada nazarda tutish har qachongidan dolzarbdir. Dunyoda turli – tuman kasblar, bir- biridan turfa hunarlar bor. Ularning har birida o'ziga xos ish qurollaridan foydalaniladi. Masalan: dehqonlarning asosiy ish quroli ketmon. Duradgorniki – tesha, tikuvchiniki esa – ignadir. Dehqon ketmoni bilan taqir yerga betakror bog' barpo qiladi, go'zallik yaratadi yoki tajriba mahorati yetarli bo'lmasa yerning umriga zomin bo'ladi. Faoliyatining asosiy quroli til bo'lgan kasblar ham borki, ularning boshida pedagoglik turadi.

Pedagogik muloqot o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning asosiy shakillaridan biridir. U asosan ta'lim jarayoni bilan tartibga solinadi, ammo muloqot ko'pincha to'g'ridan - to'g'ri, yuzma - yuz sodir bo'lganligi sababli, u pedagogik o'zaro ta'sir ishtirokchilari uchun shaxsiy ahamiyatga ega. Zamonaviy pedagogning og'zaki nutqiga bir qator talablar taqdim etiladi, ularning asosiysi albatta savodxonlikdir. Biz buni eng umumiylar ma'noda xatolarning yo'qligi "parazit so'zlar" "vaziyatni bat afsil tushuntirishni talab qilmaganda qisqacha gapirish qobiliyati deb hisoblaymiz. Biroq savodxonlik og'zaki nutqning yagona muhim xususiyati emas chunki uning ekspressiv qobiliyatiga ega bo'lishi ko'p jihatdan zamonaviy pedagog ishining samaradorligini belgilaydi.

Mashhur rus olimi M.V.Lomonosov o'zining "Notiqlik bo'yicha qisqacha qo'llanmasida notiq bo'lish uchun avvalo tabiiy qobiliyat zarurligini tabiiy qobiliyat esa ruhiy va jismoniy turlarga bo'linishini aytib o'tgan. Olim jismoniy qobiliyat deganda baland va yoqimli ovoz uzun nafas va baquvvat ko'krak shuningdek sog'lom tana va kelishgan qomatni nazarda tutadi.

Yana bir buyuk bir olimlarimizdan biri yunon shoiri Kvint Ennius yozishicha o'qituvchi – sarson - sargardon shaxsni o'z yo'liga mehr bilan yetaklovchi insondir. Ko'ngli go'zal farzandlar tarbiyalashni o'z oldiga maqsad qilob qo'ygan o'qituvchining o'zi ham insonga qaratilgan bo'lishi uni asrab avaylashi birovning ruhiy holatini his qilishi anglashi lozimdir. O'qituvchining o'quvchilarga bo'lgan muhabbat u pedagogik faoliyat sohasiga kelgan tayyor tuyg'u emas. Bu hushyor mashaqqatli va hayajonli ish.



Bu nafaqat “texnologik ko’nikmalarni egallash emas balki o’z shaxsiyatini rivojlantirish usuli.

Pedagogik muloqot - o’qituvchining o’quvchilar bilan auditoriya va undan tashqarida qulay psixologik muhit yaratishga qaratilgan professional muloqoti. Noto’g’ri pedagogik muloqot qo’rquv noaniqlik e’tibor xotira ishlashining zaiflashishi nutq dinamikasining buzilishi va natijada maktab o’quvchilarining stereotipik bayonotlarining paydo bo’lishiga olib keladi chunki ularda mustaqil fikrlash istagi va qobiliyati pasayadi. Pedagog nutqining to’g’rilik aniqlik moslik leksik boylik ifodalilik va tozalik kabi kommunikativ sifatlari o’qituvchi nutqining madaniyatini belgilaydi. Maqsadga muvofiq pedagogik nutq o’zining mantiqiyligi ishonchliligi kuzatuvchanligi bilan xarakterlanadi. Pedagog nutqining o’ziga xosligi bilim bilimni o’quvchilar tomonidan qabul qilinishi va esda qolishi o’rtasida to’g’ridan - to’g’ri aloqa mavjud.

Nutq odobi insonning axloqini belgilovchi mezondir. Axloq fan sifatida o’rta asrlarda yuzaga keldi. Kishining odobi, eng avvalo uning nutqida ko`rinadi.

Nutq odobi – aytilishi zarur bo`lgan xabarlarni tinglovchiga hurmat qilgan holda, bilish, chunki ularni bilmaslik aniqlikning buzilishiga olib keladi. O’qituvchi o’z nutqidan keng foydalanadi. O’quvchilarga voqeа hodisalar, shaxslar haqida ma’lumot berishda bu katta ahamiyat kasb etadi. O’qituvchilik kasbi bevosita ovoz xususiyatlari bilan bog’liq, yoqimli va jarangdor ovozga ega bo`lgan o’qituvchi o’z o’quvchilariga ovozining shiradorligi bilan ham ta’sir etadi. Bunday muvaffaqiyatga erishish uchun o’qituvchi o’z ovozini kuchini, yoqimligini bilishi zarur.

O’qituvchining ovozidan quyidagi xususiyatlar bo`lishi lozim. - jarangdorlik (tovushning tozaligi va tembrning yorqinligi); Asarlarning ayrim parchalari darsda hikoya qilib beriladi. Hikoya qilib berishda voqealar batafsil yoki ma’lum qisqartirishlar bilan bayon etilishi mumkin.

Nutq texnikasi deyilganda nutqni tinglovchi yoki o’quvchiga yetkazishda qo’llanadigan vositalar tushuniladi. Nutq ikki xil ko`rinishda bo`lganda uni texnikasini ham ikki xil ko`rsatish mumkin:

1. Og`zaki nutq texnikasi.
2. Yozma nutq texnikasi.

Og`zaki nutq texnikasi tovush, bo`g`in, so`zlarni, uning shakllarini talaffuz etishni yaxshilash borasida nutq organlarini faollashtiruvchi mashqlarni anglatadi. Bunga ovozdan foydalanish tovush fazilati sifatida yorqin ifodalash qobiliyati bilan nutq faoliyatining ma’nosini bilan, nutq ishlatilayotgan so`z ma’nolarini bilish bilan bog’liq bo`ladi. Agar notiq o`zi fikr yuritmoqchi bo`lgan nutq predmetining yaxshi bilsa, unga mos so`zlar tanlasa va o`zi tanlagan so`zlarning ma’nolariga vazifalar yuksala, nutqning aniq bo`lishi muqarrardir.

Nutqning sifati ma’nosidan aniqligining o’zi nimalardan iborat? Aniqlikn “nutq borlik”, nutq – tafakkur munosabatlari asosida aniqlasa bo`ladi. Ish qog`ozlarga xos bo`lgan xususiyatlar.



Yozma nutq ham huddi og`zaki nutq kabi tinglovchi uchun yaratiladi. Uning qulayligidan, o`quvchiga tez va butun mohiyati bilan yetib borishidan yozuvchi ham, o`quvchiga ham minnatdor.

Nutqiy muloqot inson hayoti va faoliyatining muhim shartidir. Aynan muloqot yordamida insonlar tabiatini o`zlashtirish va o`z ehtiyojlarini qondirish uchun birgalikda harakat qilish imkoniyatiga ega bo`ladilar. Nutqiy muloqot faqat insonlarga xos bo`lgan jarayon sanalib, o`zaro nutqiy muloqot kishilik jamiyati vujudga kelishining eng asosiy unsuri hisoblanadi. Kommunikativ jarayon odamlar amalga oshiradigan faoliyatlar ichida yetakchi o`rinni egallaydi. U insondagi eng muhim ehtiyojini, ya`ni jamiyatda yashash va o`zini shaxs sifatida faoliyat yuritishi bilan bog`liq ehtiyojini qondirish sanaladi. Shuning uchun ham jamiyatdagi faoliyatni tashkil qilish uchun nutqiy muloqot har bir inson uchun ahamiyatlidir.

#### XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki jonli tovush nutq va uning barcha unsurlarini to`g`ri voqealashtirish ko`nikma va malakalarining jami nutq texnikasidir. Kasbiga sadoqatli pedagog o`z o`quvchisi ko`z o`ngida qusursiz bilimli qadrli ustoz ko`rinishida ko`rinadi. Uni saqlab qolish esa har bir pedagogning o`ziga bog`liq. Pedagog har doim o`z ustida ishlashi yangiliklardan xabardor bo`lishi maqsadga muvofiqdir. Pedagogning ovozi talaffuzi umuman tirik nutqi hamisha o`quvchilar uchun o`ziga xos namuna vazifasini bajaradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.

1. Bekmirzayev N. Notiqlik san`ati asoslari.T.: Yangi asr.208.-200b.
2. Mahmudov N. O`qituvchi nutqi madaniyati.
3. Mo`ydinov Q. "Notiqlik sanati va nutq madaniyati " nomli maqolasi.
4. Ta`lim jarayonida nutq madaniyatini shakillantirish masalalari Toshkent "Sharq "1999.256-b.
5. T. Qudratov. Nutq madaniyati asoslari. T.O`qituvchi.1993y.
6. Kaykovus. Qobusnama. T. Istiqlol 1994y.
- 7.П.Юсупова "Мактабгача тарбия педагогикаси". Ўқув қўлланма. Т. – "Ўқитувчи"- 1993й.
8. Xasanova, Г. И. Қ. (2021). Болага йўналтирилган таълимни амалга оширишда тарбиячининг касбий компетентсиясининг ахамияти. Academic research in educational sciences, 2(9), 1051-1056.
9. Xalq og`zaki ijodi asosida o`quvchilarni ma`naviy-axloqiy tarbiyalash: xalq og`zaki ijodi asosida o`quvchilarni ma`naviy-axloqiy tarbiyalash